AXLOQ VA IJTIMOIY MUNOSABATLAR

Samatov Xurshid Ulmasjonovich
Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Egamova Zuhra Eshonqul qizi
SamDPI Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich 203-guruh talabasi

Annotatsiya. Maqolada axloqning mohiyati, uning ijtimoiy ong shakli sifatidagi o‘rni va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi vazifalari tahlil qilinadi. Axloq, xulq va etika tushunchalarining o‘zaro nisbati, axloqiy baholash va axloqiy qoidalarning xususiyatlari yoritiladi. Sharq va G‘arb axloqiy ta’limotlarining umumiy va farqli jihatlari, Konfutsiy, zardushtiylik va islom axloqi hamda Abu Nasr Forobiyning axloqiy qarashlari ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mehnat, kasb, oila va tadbirkorlik axloqining jamiyat hayotidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *axloq, xulq, etika, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, axloqiy baholash, Sharq va G‘arb, komil inson, adolat, oila.*

Аннотация. В статье анализируются сущность морали, её место как формы общественного сознания и функции в регулировании общественных отношений. Освещаются соотношение понятий «мораль», «нравственность» и «этика», особенности нравственной оценки и моральных норм. Общие и отличительные черты восточных и западных нравственных учений, взгляды Конфуция, этика зороастризма и ислама, а также этические воззрения Абу Насра Фараби рассматриваются с точки зрения общественных отношений. Также раскрывается значение трудовой, профессиональной, семейной и предпринимательской этики в жизни общества.

Ключевые слова: *мораль, нравственность, этика, общественные отношения, нравственные ценности, нравственная оценка, Восток и Запад, совершенный человек, справедливость, семья.*

Annotation. The article analyzes the essence of morality, its place as a form of social consciousness, and its functions in regulating social relations. It clarifies the relationship between the concepts of morality, conduct, and ethics, as well as the features of moral evaluation and moral norms. The common and distinctive features of Eastern and Western moral teachings, the views of Confucius, Zoroastrian and Islamic ethics, and the ethical ideas of Abu Nasr al-Farabi are examined from the standpoint of social relations. The article also reveals the importance of work, professional, family, and business ethics in public life.

Keywords: *morality, conduct, ethics, social relations, moral values, moral evaluation, East and West, perfect human, justice, family.*

Kirish

Axloq jamiyat hayotining barcha sohalariga singib ketgan, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi eng qadimiy va eng keng qamrovli ijtimoiy hodisalardan biridir. Dunyodagi barcha bilim va tajribalar inson faoliyati bilan bog‘liq holda vujudga keladi va rivojlanadi yoki aksincha, eskirib zavolga yuz tutadi, axloq esa odamzotning ongli hayoti mavjud ekan, hech qachon zavol bilmaydigan noyob hodisadir [1, 7]. Markaziy Osiyo fiqh maktabining yetuk siymosi Burhon-ud-din al-Marg‘inoniy ta’kidlaganidek, “Axloqsiz odam katta fasoddir” [1, 7]. Yuksak ma’naviyat esa shaxs va jamiyat barqarorligining yengilmas kuchidir [2, 18]. Maqolaning maqsadi axloqning mohiyatini, uning ijtimoiy munosabatlardagi vazifalarini hamda Sharq va G‘arb axloqiy ta’limotlaridagi o‘rnini yoritishdan iborat.

Axloq haqidagi fan — “etika” falsafaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida “Qanday harakat qilmoq lozim”, “Nima qilish mumkin, nima taqiqlanadi”, “Men

nima uchun yashayman”, “Nima yaxshi-yu, nima yomon” kabi masalalarga javob topish uchun amaliy fan sifatida ajralib chiqqan. Axloq lotincha “moralis”, “mores” so‘zlaridan olingan bo‘lib, ma’nosi xulq, odat demakdir. Xulq (odob) odamlarning amaliy xatti-harakati, odamlar o‘rtasidagi amaliy munosabatlardir, etika esa yunoncha “ethos” so‘zidan olingan bo‘lib, axloqning paydo bo‘lishi va tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini, axloqiy hodisalarning ijtimoiy mohiyatini o‘rganadi; demak, etika axloq haqidagi nazariyadir [2, 21]. Mutafakkir Abdulla Avloniy ta’biri bilan aytganda, axloq “insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur” [3, 11]. Axloq falsafasi ijtimoiy fanlar orasida o‘zining munosabatlar ko‘lamining kengligi, predmeti va tartibga solish usulining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, binobarin, axloqning bosh mavzui insondir, insonlarning o‘zaro munosabatlari va muomalalari esa axloqning bevosita obyekti hisoblanadi [3, 12].

Ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lgan axloq insoniyat jamiyati shakllanishining ilk bosqichlarida paydo bo‘lgan, iqtisodiy va boshqa munosabatlarning o‘zgarishi davomida, insoniyat moddiy va ma’naviy madaniyatining taraqqiyoti jarayonida rivojlanib borgan. Axloq sotsial tartib-qoida bo‘lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish funksiyasini bajaradi [4, 31]. Axloq ijtimoiy faoliyatni tartibga solishning boshqa shakllaridan o‘z talablarining asoslanishi bilan farq qiladi: unda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning yoki guruhlarning manfaatlari o‘ziga xos ravishda shakllangan va hamma qabul qilgan, ommaviy namuna, odat, rasm-tamoil, jamoatchilik fikrining kuchi bilan mustahkamlangan qoidalar, me’yorlar va baholar tarzida ifodalanadi. Shuning uchun axloq talablari hammaga babbaravar qaratilgan va hech kimning buyrug‘i bilan joriy etilmagan shaxssiz burch shakliga kiradi, ular nisbatan barqaror xarakterga ega bo‘lib, har bir kishi tomonidan bajarilishi jamoat tomonidan nazorat qilinadi va ma’naviy ta’sir ko‘rsatish shakllari bilan tasdiqlanadi [2, 22].

Axloqda ijtimoiy ong bilan bir qatorda individual ong shakli ham muhim o‘rin tutadi: individ jamiyat ishlab takomillashtirgan axloq-odob tasavvurlariga tayanib, o‘z xatti-harakatini mustaqil ravishda tartibga soladi, shu tufayli u faqat ijtimoiy nazorat obyekti emas, balki axloqning ongli subyekti, ya’ni axloqiy shaxs sifatida ham maydonga chiqadi. Ijtimoiy hayotning turli sohalariga tatbiqan axloqda maxsus qoidalar ifodalanadi va bu qoidalar mustaqil sohalarni tashkil etadi, shuningdek, mehnat axloqi, kasb axloqi, oila axloqi, diplomatiya axloqi, bozor va tadbirkorlik axloqi kabi shakllarda axloq o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Axloq jamiyatda kishilar orasidagi turli munosabatlarni muvofiqlashtirish, kishilar faoliyatining insonparvarlik qadriyatlari va mo‘ljallarini belgilab berish, shaxsni ijtimoiylashtirish kabi funksiyalarni bajaradi [4, 33]..

Axloq va axloqiylik o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan jarayon emas, u keng qamrovli bo‘lib, o‘zida bir qator ijtimoiy-ma’naviy ko‘rinishni mujassam etadi va ma’naviyat tizimidagi sohalar bilan yaqindan aloqada bo‘ladi. Jamiyat a’zolarining axloqiy fazilatlari, ularni shakllantirish va takomillashtirish vazifalari, ta’lim-tarbiyaning yo‘llari va usullariga kishilarning yashash va mehnat qilish sharoitlari, turmush tarzi, milliy jihatlari, diniy e’tiqodlari katta ta’sir ko‘rsatgan [3, 15]. Sharq va G‘arb axloqiy ta’limotlari qanchalik farqlanmasin, ularga tegishli va belgilovchi bo‘lgan umumiylik ichida jahoniy miqyosdagi chuqur ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida komil inson, adolat, yaxshilik, vatanparvarlik g‘oyalari alohida o‘rin tutadi. Javoharlal Neruning “Beruniy yunon falsafasini egallab, hind falsafasini mutolaa qilmoq uchun sanskrit tilini o‘rgandi. So‘ng yunon va hind falsafasini bir-biriga solishtirib, ulardagi mavjud bo‘lgan umumiylikni ko‘rib g‘oyatda ajablangan edi” degan fikri zamirida juda katta ma’no yotadi. Sharqda ham, G‘arbda ham ilk axloqiy fikrlar va qarashlar xalq og‘zaki ijodi — maqollar, matallar, hikoyalar, hikmatlar va rivoyatlarda namoyon bo‘lgan, asrlar davomida ular og‘izdan-og‘izga o‘tib bizgacha yetib kelgan [1, 11]. Qadim zamonlardan hozirgi kungacha etikaning asosiy prinsiplaridan biri bo‘lgan evdemonizm (baxt-saodat, rohat-farog‘at, farovonlik) va

gedonizm (lazzatlanish, huzur, zavq) g‘oyalarining tahlili ham muhim o‘rin tutadi [4, 24]. Sharq va G‘arb odamining axloqiy va ruhiy qiyofasi o‘zaro farqlanadi: Sharqda aqli kull (ilohiy, mutlaq aql) va aqli juz (insonning kundalik hayotiga tegishli aql) farqlanadi [5, 301–303].

Axloqiy tafakkur taraqqiyotida Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning qarashlari muhim o‘rin tutadi, uning ta’limotining ta’siri nafaqat Xitoyda, balki boshqa mamlakatlarda ham yaqqol sezilgan. 1988-yilda Xalqaro Nobel mukofotining Parijdagi yig‘ilishi Murojaatnomasida insoniyat XXI asrda yashab qolishini istasa, 25 asr ilgari yashab ijod etgan Konfutsiyning donishmandligidan yaxshi xabardor bo‘lmog‘i darkor, degan e’tirof berilgan [1, 12]. Konfutsiy ta’limoti ijtimoiy-axloqiy, falsafiy g‘oyalarga to‘liq bo‘lib, hikmatiy amaliy xususiyati bilan ajralib turadi, “O‘zingga ravo ko‘rmaganni o‘zgaga ham ravo ko‘rma” shiori esa uning g‘oyalarining markazida turadi [6, 8]. Mutafakkir odamlarga muhabbat va mehribonlikni odamiylikning boshlanishi deb hisoblagan, inson yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarishi lozimligini ta’kidlagan, ota-onaga hurmat ko‘rsatishni esa odatga sodiqlikning namunasi sifatida ko‘rsatgan. Konfutsiy har kuni yangi bilimlarni o‘zlashtirish, jamiyatda va jamiyat uchun yashash, bir-biriga yon berish, mansabi va yoshi katta kishilarga quloq solish, davlatga sodiq xizmat qilish, vatanparvar va insonparvar bo‘lish, shaxsiy farovonlikdan ko‘ra davlat va insonlarning farovonligi to‘g‘risida qayg‘urish kabi axloqiy tamoyillarni ishlab chiqqan [6, 9].

Axloqiy qarashlar tarixida “Avesto” ham alohida o‘rin tutadi. Zardushtiylik ta’limotida yaxshilik bilan nopoklik, rivojlanish bilan tanazzul o‘rtasidagi doimiy kurash asosiy g‘oya hisoblanadi. Zardushtiylar aqidasicha, odamzod paydo bo‘lgandan beri ikki gavhar mavjud: biri andishada, guftorda va kirdorda yaxshilik, ikkinchisi yomonlikdir, shuning uchun barcha odamlar “andeshai nek” (ezgu fikr), “guftori nek” (ezgu so‘z) va “kirdori nek” (ezgu amal)ga yuz tutib, “andeshai bad”,

“guftori bad” va “kirdori bad”dan yuz o‘girib yashamoqlari zarur [7, 23]. “Avesto”da har bir kishining hayotda, ishda va amalda axloq me’yorlariga rioya qilish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatilgan: nafsini chegaralash, kasb va ilmni sevmoq, to‘g‘ri so‘zlilik, ahdida sobitlik, rost guvohlik bermoq, omonatga xiyonat qilmaslik, ojizlarni qo‘llash, xalq uchun, Vatan uchun xizmat qilmoq, mehmondo‘stlik, mehribonlik va insonsevarlik shular jumlasidandir [7, 24]. Zardushtiylikda ham jamiyatning axloqiy asosi adolat, samimiylik va hurmat deb qaralgan [7, 25]. Oila va jamoada berilgan so‘zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o‘rtasida tuzilgan ahdnomani buzish, adolatsiz bo‘lish katta gunoh hisoblangan [7, 27]. Shuningdek, tuproq, suv, olov, havo, o‘simlik, hayvon va inson xudo tomonidan yaratilgan ilohiy mohiyatga ega vujudlar deb hisoblangani sababli inson tuproqni serunum qilishi, suvni toza tutishi, o‘simlik va daraxtlarni ko‘paytirishi, hayvonlarga homiylik qilishi zarur bo‘lgan, inson, jamiyat va tabiatga axloqiy munosabatlar esa bolalarning yoshligidan o‘rgatib borilgan [7, 29].

Islom axloq falsafasiga ko‘ra axloqiy yuksalish imon, haqiqat va adolatdan boshlanadi; imon uch unsurdan, ya’ni ishonch (Allohning yagonaligiga), iqror (so‘zda istig‘for qilmoq) va amal (ezgu ishlar bilan qalb va so‘z amrini isbotlamoq)dan tashkil topgan. Imon ma’naviyatning botiniy mohiyatlaridan biri bo‘lib, kishi uchun hayotda to‘g‘ri yo‘l topishning muhim omili hisoblanadi, uning zohiriy sifatlari esa himmat va saxovat, oriyat va nomus, zakovat va farosat, jamiyat hayotida tinchlik, adolat, insonparvarlik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, halollik va ezgu ishlar qilishdir [3, 20]. Umuminsoniy axloqiy qadriyatlar — so‘z bilan ish (amal) birligi, insof, diyonat, halollik, poklik, vijdonlilik, sadoqat, muhabbat, til va dil birligi, vatanparvarlik, shuningdek, oila, jamiyat, xalq va butun insoniyat oldidagi burchni anglash kabi fazilatlar imonlilik shartlari hisoblanadi. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida bildirgan “Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q. Har kimda bu ikki yo‘q — iymon yo‘q va har kimda imon yo‘q

— andin odamiylik kelmak imkoni yo‘q” fikrida ham axloq imon butunligini taqozo etishi ifodalangan [1, 24].

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida tizimli o‘rganilgan [8, 33], Kaykovusning “Qobusnoma” asari esa kundalik odob-axloq va o‘zaro munosabatlarga bag‘ishlangan [9, 40]. Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy axloqlik hodisasining motivatsion xususiyati, namoyon bo‘lishi, axloqning jamiyat hayotidagi o‘rni va funksiyalarini tadqiq qilgan alloma hisoblanadi, uning “Fozil shahar aholisining maslagi haqida kitob”, “Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola” kabi asarlarida axloq bir butun tizim sifatida tadqiq etilgan. “Daraxtning yetukligi, — deydi Forobiy, — uning mevasi bilan, insonning barcha go‘zal xislatlari uning mehri, oriyati, sadoqati, xushfe’lligi, sharmu hayosi, halimligi, ya’ni axloqi bilan o‘lchanadi” [1, 24–25]. Forobiy fikriga ko‘ra, inson o‘zini axloqiy poklamay, tafakkurini boyitmay turib baxt-saodatga erishmaydi; har kimki ilm-hikmatni istasa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi, axloqi odobli bo‘lsin, so‘zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat, makr va xiyladan uzoq bo‘lsin, diyonatli bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin [10, 182]. Allomaning fikriga ko‘ra, hukmdor davlatni boshqarishga kirishuvdan oldin o‘zini turli hirslardan tozalashi, o‘z xulqini tarbiyalashi, haqiqatga bo‘lgan hisni tarbiya qilishi va o‘zida 13 ta xususiyatni mujassamlashtirishi kerak: to‘rt muchali sog‘-salomat bo‘lish, kuchli xotira egasi, tabiatan nozik fahmli va zehni o‘tkir bo‘lish, voizlik qobiliyatini egallash, qadr-qimmatni biladigan, nomus-oriyatli bo‘lish, boylik va hashamlarga nafratli bo‘lish va boshqalar. Abu Nasr Forobiy tomonidan ishlab chiqilgan “hukmdorning axloq konsepsiyasi” o‘ziga xos axloqiy-me’yoriy dastur sifatida nafaqat Sharq, balki G‘arb Uyg‘onish va Yangi davr etikasiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi [10, 185].

Xulosa

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida jamiyat hayotining barcha sohalarida kishilar xatti-harakatini tartibga soladi, ularning o‘zaro munosabatlarini insonparvarlik qadriyatlari asosida muvofiqlashtiradi va shaxsni ijtimoiylashtiradi. Axloq, xulq va etika tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, etika axloq haqidagi nazariy fan sifatida namoyon bo‘ladi. Sharq va G‘arb axloqiy ta’limotlari, Konfutsiy, zardushtiylik va islom axloqi hamda Forobiy qarashlari turlicha tarixiy sharoitda shakllangan bo‘lsa-da, komil inson, adolat, yaxshilik, vatanparvarlik hamda oila, jamiyat va insoniyat oldidagi burchni anglash kabi umumiy g‘oyalarda uyg‘unlashadi. Mehnat, kasb, oila va tadbirkorlik axloqi ijtimoiy munosabatlarning mustaqil sohalarida axloqiy me’yorlarning amal qilishini ta’minlaydi. Shunday ekan, yosh avlodni axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat barqarorligi va ma’naviy yuksalishining muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilova B.M. Axloq falsafasi. Darslik. – Toshkent: «Ijod-Print», 2019. – 160 b.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. J.2. – T.: Ma’naviyat, 1998. – 264 b.

4. G‘arb falsafasi (Q. Nazarov va boshqalar). – T.: Sharq, 2004. – 284 b.

5. Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. – T.: Fan, 2009. – 320 b.

6. Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. – 224 b.

7. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Avestada axloqiy ta’limiy masalalar. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 208 b.

8. Aliqulov X. va b. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. – Andijon, 2003. – 256 b.

9. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O‘qituvchi, 2006. – 288 b.

10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Yozuvchi, 1993. – 240 b.